

Jahon xo‘jaligi globallashuvi sharoitida Koreya Respublikasi soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari

TDSHI, “XMI va Mamlakatshunoslik” fakulteti, OTO va Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiyoti yo‘nalishi 2- bosqich magistranti Xamidov Alisher Gaydarovich

Annotatsiya

Mazkur maqola jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida Koreya Respublikasi soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning taixiy hamda zamonaviy bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, unda soliq tizimi va bu sohada olib boriluvchi siyosat yoritib berilgan.

Koreya Respublikasi zamonaviy soliq solish tizimi 1948 yilda Koreya Respublikasi shakllangach kiritilgan. Sakkizta asosiy qonunlar, ya’ni Daromad solig‘i haqidagi qonun, foyda solig‘i va Soliq huquqlari haqidagi qonunlar 1948 yilda kuchga kirgan. Keyinchalik meros solig‘i huquqi, sayohat solig‘i huquqi, Tovar solig‘i huquqi va yana oltita qonun qo‘shilgan.

Koreys urushi (1950-1953) davrida soliq tizimida kerakli bo‘lgan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yer solig‘i vaqtinchalik ko‘paytirildi. Bundan tashqari bir qancha amaldagi qonunlar – daromad soliqlariga oidlari ko‘rib chiqildi. Bunga asosiy sabab qilib 1951 yilda bo‘lib o‘tgan urushni ko‘rsatish mumkin. Chunki o‘sha davrda urushni moliyalashtirish zarur edi. O‘cha davrlarda daromad solig‘ini oshirish siyosati qo‘llab quvvatlandi va bu qonunga yana bir nechta o‘zgartirishlar kiritilishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida daromad solig‘i mamlakat byudjetining asosiy manba‘iga aylandi. 1953 yilda ikki Koreya o‘rtasida tinchlik sulhi tuzilgach, davlat hokimiyati soliq tizimini yanada mustahkamlash siyosatini olib bordi.

Urushdan keyingi tiklanish davri 1954-1961- yillarni o‘z ichiga oldi.

Urushdan keyingi tiklanish davrida bir qator ko‘rilgan islohatlar oqibatida soliq tizimida mavjud bo‘lgan vaqtinchalik to‘lanayotgan soliqlardan voz kechildi. 1956 yilda to‘g‘ri soliq stavkalari tushirilib, egri soliq stavkalari ko‘tarib qo‘yildi. 1959 yilda soliq maslahatchilari guruhining maslahatiga muvofiq soliq stavkalari tushirildi va soliq ma‘muriyatlari ham tartibga solib qo‘yildi.

To‘g‘ri soliq stavkalari pasaytirildi, lekin egri soliq stavkalari oshirilgan edi.

Iqtisodiy o‘rish davri 1962-1967- yillarni o‘z ichiga oldi. 1961 yil oxirlarida soliq ma‘muriyatlarida umumiy qonun buzarliliklarni yo‘qotish maqsadida chuqur islohatlar olib borildi. Keyinchalik bu islohatlar o‘z samarasini berdi. Qabul qilingan besh yillik reja asosida zamonaviy soliq tizimini yaratishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Bu islohatlarning asosiy yo‘nalishlari ma‘muriy soliq tashkilotlarining soliqlarni o‘z vaqtida yig‘ish, bundan tashqari shaxsiy omonatlar, investitsiyalarni jalb qilishni shakllantirish va adolatli soliq tizimini tashkil qilish edi. 1961- yilning dekabrda

daromad solig'i, uyushma soliq huquqlari, biznes solig'i, ro'yhatdan o'tish solig'i, sayohat solig'i, neft mahsulotlari solig'i, soliqlarni qabul qilish, gerb yig'imi, tovar solig'i huquqi, soliqlarni yig'ish milliy qonunchiligi, soliqlardan qochishni jazolash to'g'risidagi qonunlar takomillashtirildi va unga o'zgartirishlar kiritildi. Keyingi yilda mahalliy va davlat soliq tizimiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Mana shu islohatlar Koreya Respublikasining haqiqiy soliq tizimini belgilab berdi.

Koreya Respublikasi hukumati so'nggi yillarda yirik soliq islohatlarini olib bordi. Bunda asosan ikki maqsadga erishish ko'zda tutilgan, ya'ni:

- muntazam o'sib boruvchi iqtisodiy yutuqlarga erishish

- davlat soliq tizimining boshqa soliq tizimlariga qaraganda raqobatbardoshligini oshirish. Buning uchun Koreya Respublikasi hukumati ishlab chiqqan hududiy rejalashtirishga e'tibor qaratish o'rinlidir:

- birinchidan, aholi yashash tarzini oshirish maqsadida doimiy ravishda bo'sh ish o'rinlarini yaratish;

- ikkinchidan, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab quvvatlash;

- uchinchidan, daromad soliqlarini yengillashtirish;

- to'rtinchidan, soliq imtiyozlarini tartibga solish;

- beshinchidan, soliq tizimini mustahkamlash.

Yuqorida ko'rsatilgan reja orqali Koreya Respublikasi bugungi kunda o'zining soliq islohatlarini olib bormoqda. Koreya Respublikasi olib borayotgan soliq islohatlari mamlakat soliq tizimini yildan-yilga mukammallashtirib bormoqda.

Yurtboshimiz soliq islohotlariga to'htalganda shunday deydilar: "Prinsipial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. Aytish joizki, ... Ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizni takomillashtirish bilan bevosita bog'liq".¹

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funksiyalarga ega bo'lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakterlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni

¹ Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent, 2005- yil, 88- bet.

ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak.

Shuni aytish mumkinki Koreya Respublikasi soliq tizimi haqiqatdan ham juda mukammal tarzda tuzilgan. Bu davlatning olib borayotgan soliq siyosatini yuqori saviyada deb aytish mumkin. Koreya Respublikasi soliq organlarining faoliyati mustahkam qonunlar asosida olib boriladi. Koreya Respublikasi soliq tizimi bimalol boshqa davlatlar uchun o'rnak bo'la oladi deb aytsak bo'ladi. Bundan tashqari Koreya Respublikasi soliq tizimining yana asosiy xususiyatlari shundaki, mamlakatda soliq tizimining barqarorligi, mukammalligi va soliq imtiyozlarining aholi uchun ko'pligi asosan soliqlarning o'z vaqtida to'lanishidir. Har bir davlatning byudjetini asosan soliqlar tashkil qiladi. Buni Koreya Respublikasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 80-90% ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Koreya Respublikasida ham mana shu ko'rsatkichga teng.

Koreya Respublikasi soliq qonunchiligi har xil turdagi soliqlarda qo'llanadigan soliq stavkalarini proporsional va progressiv stavkalarga bo'ladi. Proporsional soliq stavkalari muntazam va differensial stavkalarga ajratadi. Muntazam proporsional stavkalar qo'shimcha qiymat soliqlariga qo'shiladi (10%) va aktiv soliqlarni qayta baholaydi (3%). Differensial proporsional stavkalar esa qimmatli qog'ozlar operatsiyalari, maxsus istemol soliqlari, transport, energiya, ekologiya soliqlari bilan shug'ullanadi. Daromad solig'i meros va hadya soliqlari muntazam soliq stavkasiga tegishli. Ba'zi bir soliq turlari, ya'ni daromad solig'i, jamoaviy soliq, qo'shimcha qiymat solig'i soliq qonunchilik davrining so'ngida yaratilgan.

Soliqlarning fiskal funktsiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi, ya'ni davlat moliyaviy mablag'larining shakllanishi, shuningdek, davlatning umumdavlat va maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun mablag'larni jamg'arish vazifalari amalga oshiriladi. Soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarining asosini tashkil qiladi. Masalan, AQSh da soliq tushumlari davlat byudjetining 98 % ini, Buyuk Britaniyada – 97 %, Fransiya da – 91 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy Hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a'zo 24 davlatda soliq soliq tushumlarining byudjet daromadlaridagi ulushi 78 % (Norvegiya) dan 97,8 % (Italiya) gacha tebranib turadi. MDH davlatlarida soliq tushumlarining davlat byudjetidagi ulushi ko'rsatkichi Rossiyada – 82,7 %, Ukrainada – 82,2 %, Qozog'istonda – 97,0 %, Belarus Respublikasida – 97, 3 % ni tashkil etadi.²

So'nggi yillardagi Koreya Respublikasi hukumatining soliq tizimiga tegishli bir qator islohatlari, soliq tizimidagi ayrim qonunlarga kiritilgan o'zgartirishlar hozirgi kundagi soliq tizimi qonunlarini yanada mustahkamladi deb aytish mumkin.

² Government Financial Statistics/ IMF/. 2008.